TOSHKENT VILOYATI OHANGARON SHAHRI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 17-oktabr | 237-10-214-Q/24 | Ohangaron shahar hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi 642-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan hamda “Mahaliy davlat hokimiyati to‘g‘risida“gi qonunning 6, 25-moddalariga asosan, qaror qilaman:

QAROR QILAMAN:

1.“Aholini bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 39-moddasi asosida ish ko‘rib, Ohangaron shahar hokimligi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilaydi, shahardagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar uchun xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha sonining 7 foizgacha miqdorida, bu 73 kishini tashkil etadi, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 41 foiz (30 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari 38,4 foizi (28 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar 9,6 foizi (7 kishi);

nogironlar uchun 4,1 foiz (3 kishi);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 1,4 foiz (1 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 5,5 foiz (4 kishi)ni qamrab olinganligi ijro uchun qabul qilinsin.

2. Shaxslarning ko‘rsatib o‘tilgan toifalari uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishligi belgilab qo‘yilsin.

3. Tashkilot rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq ushbu qarorning 1-bandida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasinlar.

4. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha shahar hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanishi ko‘rsatib o‘tilsin.

5. Ohangaron shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (D.Madazimov) O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va Bandlik vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B sonli (Adliya vazirligi tomonidan 3163-son bilan 31.05.2019 yilda ro‘yxatga olingan) buyrug‘iga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilgan “Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida eng kam oylik ish haqining 2 barobari miqdorida haq to‘lash ishlarini tashkil etsin.

6. Ushbu qaror besh kun muddatda kvota ish o‘rinlari belgilangan korxona, tashkilot hamda muassasalarga yetkazilsin.

7. Kvota ish o‘rinlari belgilangan korxona tashkilot va muassasalar rahbarlari qarorni qo‘lga olgandan so‘ng, ish o‘rnini zaxira qilganliklari haqidagi buyruq rasmiylashlashtirirb, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish markaziga taqdim etsin har oyning 5-sanasiga qadar kvota ish o‘rniga qabul qilinganlar bo‘yicha oylik hisobotni taqdim etsin.

- Kvota ish o‘rinlari belgilangan korxona tashkilot va muassasa rahbarlari zaxiralangan ish o‘rinlarini YAMMT bazasida aks ettirishini ta’minlasinlar.

8. Ushbu qarorning bajarilishi ustidan nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A Karimdjanovga yuklatilsin.

Shahar hokimi **M. Rajabboyev**

Ohangaron shahar hokimining
2024-yil 17-oktabrdagi
237-10-214-Q/24-son qaroriga
1-ilova

2024-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilib qo‘yish lozim bo‘lgan korxona, tashkilot, muassasalar ro‘yxati

T/r	Korxona va tashkilot nomi	Jami ishlovchilar soni	Jami kvota bo‘yicha	14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota onalar	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlaganlar	Safarbarlik chaqiruv zaxirasida xizmatni o‘tgan va muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar	Nogironlar uchun	Pensiya oldi yoshi uchun	Jazoni o‘tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralarni qo‘llanilgan shaxslar uchun	Oda m savdosi qurbonlari uchun	Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan kasalliklar bilan og‘riydiganlar
1	“OXANGARONSEMENT” Aksiyadorlik jamiyati	977	7	1	3	3					
2	“LIMAX GOLD TEXTIL” MCHJ	299	5	2	3						
3	Muruvvat erkaklar uchun ruhiy kasalliklar	260	2	1					1		

	internat uyi										
4	“STEEL PIPE COMPANY” MCHJ	241	5	1	2	1			1		
5	Ohangaron shahar tibbiyot birlashmasi	757	10	4	4		1				
6	"AHANGARANSKIY TRUBNIY METALLURGICHES KIY ZAVOD" MCHJ qo‘shma korxonasi	305	4	1	1	1			1		
7	"GREAT FINANCE" MCHJ	176	5	2	2				1		
8	OHANGARON SHAHAR OBODONLASHTIRI SH BOSHQARMASI	146	3	1	1		1				
9	Ohangaron shahar Saxovat internat uyi	140	2	1	1						
10	"TIANRUN" MCHJ	244	2	1	1						
11	LIDA METALL TEXNOLOGI MCHJ	784	5	1	2	2					

12	1-maktab	122	1	1							
13	2-maktab	92	1		1						
14	3- maktab	94	1	1							
15	4- maktab	63	1	1							
16	5-maktab		1		1						
17	6-maktab	44	1	1							
18	8-maktab	46	1		1						
19	9-maktab	56	1		1						
20	1-DMTT	63	1		1						
21	2-DMTT	66	1		1						
22	3-DMTT	64	1	1							
23	4-DMTT	55	1	1							
24	5-DMTT	40	1				1				
25	6-DMTT	35	1	1							
26	7-DMTT	33	1	1							
27	8-DMTT	61	1		1						
28	9-DMTT	36	1	1							
29	10-DMTT	59	1	1							
30	11-DMTT	30	1		1						

31	12-DMTT	35	1	1							
32	13-DMTT	26	1	1							
33	14-DMTT	38	1	1							
34	15-DMTT	37	1	1							
	Jami	5488	73	30	28	7	3	1	4		0